17.	Хусайнова Ш.К., Закирова Б.И. Факторы риска развития обструктивного синдрома у детей на фоне острой респираторной инфекции Xusainova Sh.K., Zakirova B.I. Risk of developing obstructive syndrome in children with acute respiratory infections. Xusainova Sh.K., Zakirova B.I. Bolalarda o'tkir respirator infeksiyaning fonida o'tkir obstruktiv sindromining rivojlanishida xavf omillarini aniqlash.....	99



ОРИГИНАЛЬНЫЕ СТАТЬИ

Болтоева Феруза Ганжабоевна

PhD, старший преподаватель кафедры
«Военно-полевой терапии, гематологии и диагностики»
Ургенчского филиала Ташкентской медицинской академии;
Ургенч, Узбекистан

СОВРЕМЕННАЯ ТАКТИКА АНТИКОАГУЛЯНТНОЙ ТЕРАПИИ ПРИ КОРОНАВИРУСНОЙ ИНФЕКЦИИ

For citation: F.G. Boltueva MODERN TACTICS OF ANTICOAGULANT THERAPY FOR CORONAVIRUS INFECTION
Journal of cardiorespiratory research. 2025, vol_6, issue 1, pp. ____

<http://dx.doi.org/10.26739/2181-0974/2025/6/1>**АННОТАЦИЯ**

В мире коронавирусная инфекция (COVID-19) и ее осложнения, известные как постковидный синдром, получили широкое распространение и стали актуальной проблемой медицины. В нашей стране на основе дальнейшего совершенствования медицинской сферы и реализуемых реформ усиливаются меры, направленные на предотвращение распространения инфекционных заболеваний среди населения, своевременную диагностику и лечения, в том числе разрабатываются новые методы диагностики и лечения COVID-19 и его осложнений. Определены такие задачи, как «осуществление необходимых профилактических и неотложных противоэпидемических мероприятий, направленных на предотвращение распространения коронавирусной инфекции в Республике Узбекистан, своевременное выявление возможных признаков ухудшения эпидемиологической ситуации по коронавирусу, а также на снижение риска заражения и оказание квалифицированной медицинской помощи пациентам». Реализация этих задач позволяет предотвратить тяжелые тромбозмембранные осложнения в нашей стране за счет дальнейшего совершенствования своевременной диагностики и лечения COVID-19 и его осложнений, применения новых методов в оказании медицинских услуг населению.

Ключевые слова: COVID-19, АЧТВ, ПВ, ТВ, фибриноген, D-димер

Boltueva Feruza Ganjaboevna

PhD, Senior Lecturer at the Department of "Military Field Therapy, Hematology and
Diagnostics"
Urgench branch of Tashkent Medical Academy;
Urgench, Uzbekistan

MODERN TACTICS OF ANTICOAGULANT THERAPY FOR CORONAVIRUS INFECTION**ANNOTATION**

In the world, coronavirus infection (COVID-19) and its complications, known as covid syndrome, have become widespread and have become an urgent medical problem. Based on further improvement of the medical sector and ongoing reforms, measures aimed at preventing the spread of infectious diseases among the population, timely diagnosis and treatment are being strengthened in our country, including the development of new methods for the diagnosis and treatment of COVID-19 and its complications. Republic of Uzbekistan, timely identification of possible signs of deterioration of the epidemiological situation of coronavirus, as well as reducing the risk of infection and providing qualified medical care to patients." The implementation of these tasks makes it possible to prevent severe thromboembolic complications in our country by further improving the timely diagnosis and treatment of COVID-19 and its complications, and applying new methods in providing medical services to the population.

Key words: COVID-19, APTT, PT, TV, fibrinogen, D-dimer,

Boltoyeva Feruza Ganjaboyevna
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali
Harbiy dala terapiyasi, gematologiya va diagnostika
kafedrası **katta o'qituvchi, PhD**
Urganch, O'zbekiston

KORONAVIRUS INFEKSIYASIDA ANTIKOAGULYANT TERAPIYANING ZAMONAVIY TALQINI

ANNOTATSIYA

Dunyoda koronavirus infeksiyasi (COVID-19) va uning postkovid sindrom deb nomlanuvchi asoratlari keng tarqalgan va tibbiyotdagi dolzarb muammoga aylanib ulgurdi. Mamlakatimizda tibbiyot sohasini ya'nada yuksaltirish, amalga oshirilayotgan islohatlar asosida aholi orasida yuqumli kasalliklar tarqalishini oldini olish, o'z vaqtida tashxislash va davolashga qaratilgan chora-tadbirlar kuchaytirilmoqda, jumladan COVID-19 va uning asoratlarini tashxislash hamda davolashni yangi usullari ishlab chiqilmoqda. «O'zbekiston Respublikasida koronavirus infeksiyasi tarqalishining oldini olish, u bo'yicha epidemiologik vaziyatning yomonlashish ehtimoli belgilarini o'z vaqtida aniqlash va kasallanish havfini kamaytirish hamda bemorlarga malakali tibbiy yordam ko'rsatishga qaratilgan profilaktik va epidemiyaga qarshi kechiktirib bo'lmaydigan zarur tadbirlarni amalga oshirish» kabi vazifalar belgilangan. Bu vazifalarni bajarish mamlakatimizda COVID-19 va uning asoratlarini o'z vaqtida tashxislash hamda davolashni ya'nada takomillashtirish, aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishda yangi usullarni qo'llash orqali og'ir tromboembolik asoratlarni oldini olish imkonini beradi.

Kalit so'zi: COVID-19, APTT, PT, TV, fibrinogen, D-dimer.

COVID-19 dastlabki paydo bo'lgan davrida kasallik to'satdan zo'rayib, optimal davolash qilinsada, ko'p o'limga olib keldi. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, infeksiyaning patogenezi nafaqat virusli pnevmoniya, og'ir respirator yetishmovchilik rivojlanishi bilan, balki kuchli giper Koagulyatsion holat vujudga kelishi bilan bog'liq. [1, 4, 8].

SARS-CoV-2 qon tomir endoteliysidagi angiotenzin-aylantiruvchi ferment 2 (ACE2) bilan bog'lanib, endotelial disfunktsiya, qon tomir o'tkazuvchanligi oshishi, mikrosirkulyasiya buzilishi, tomirlarda trombofiliya va tromb hosil bo'lishiga olib keladi. Bu o'zgarishlar endotelial disfunktsiya hamda lokal yoki tizimli vaskulit rivojlanishiga olib kelib, qon ivish tizimi zararlanishiga sabab bo'ladi [3, 6, 7].

COVID-19 da qon ivish tizimining barcha bo'g'inlarida kuchli giper Koagulyatsiya bo'lishi kuzatiladi. Qon ivish tizimidagi giperkoagulyatsion o'zgarishlar esa ko'plab trombozlarga sababchi bo'ladi [8].

Bularning orasida o'pka arteriyasi tromboemboliyasi va chuqur venalar trombozi eng ko'p kuzatiladigan trombotik asoratlardan bo'lib, og'ir darajadagi bemorlarda 20–30% holatlarda uchraydi. Trombotik asoratlardan kuzatilgan bemorlarda o'lim ko'rsatkichi 5 marta ko'pligi aniqlangan va O'pka arteriyasi tromboemboliyasi asosan kasallikning dastlabki 6 kunida kuzatilgan [9].

Odam organizmga SARS-Cov-2 virusining ta'siriga javob sifatida o'ta ko'p miqdorda yalig'lanish interleykinlari bo'lgan S-reaktiv oqsil, zardob ferritini, laktatdehidrogenaza, D-dimer, 1-beta, 6-, 2- interleykinlar, o'sma nekroz omili va xemoklinlar ishlab chiqariladi. Buning natijasida giperimmun reaksiya — «sitokin bo'roni» rivojlanib, qon tomir endoteliysini zararlaydi, qon ivish tizimi faollashadi va qon kuyilishi, trombozlar rivojlanadi [10, 11, 12].

Yengil darajali COVID-19da Koagulyatsion gemostaz ko'rsatkichlari ishonchli o'zgarmaydi, biroq o'rta og'ir va og'ir darajali COVID-19da aktiv qisman tromboplastin vaqti 25,5 – 39,5% ga, protrombin vaqti 24 – 37% ga, trombin vaqti 22,3 – 45,2% ga qisqarishi, protrombin indeksi esa 35–62% ga, fibrinogen 57,6 – 80,2% ga oshganligi aniqlandi. O'rta og'ir va og'ir darajali KIDA plazma gemostazida kuchli giper Koagulyatsion o'zgarish kuzatildi [12].

Shu bilan birga, COVID-19 og'irlik darajasiga mos ravishda trombotsitlar adgeziv va agregatsion funksiyasi oshadi, retraksiya

vaqti qisqaradi [5, 9]. Yengil darajali COVID-19 da trombotsitlar faoliyati normada bo'lib, o'rta og'ir va og'ir darajali koronavirus infeksiyasida esa trombotsitlar agregatsiyasining 23–36% ga, adgeziyasining esa 60–98% ga oshishi aniqlandi. Tromb parchalanish maxsuloti bo'lgan D-dimer COVID-19da keskin oshadi. Bu esa trombotsitlar gemostazda giper Koagulyatsion o'zgarish borligini ko'rsatadi [9, 10].

Tadqiqot maqsadi: COVID -19 bilan kasallangan bemorlarda antikoagulyant terapiyani gemostazga ta'sirini o'rganish.

Tadqiqot materiallari va usullari. Klinik tadqiqotlar 2021 yilda Xorazm viloyati Ko'p tarmoqli tibbiyotmarkazi COVID-19 davolash bo'limida o'tkazildi. Tadqiqotda koronavirus infeksiyasi bilan kasallangan 165 ta bemor tekshirildi.

Barcha tekshirilgan bemorlar 3 guruhga ajratildi: 1-guruhni 49 tayengil darajali koronavirus infeksiyasi, 2-guruhni 56 ta o'rta og'ir darajali va 3-guruhni 60 ta og'ir darajali koronavirus infeksiyasi bilan kasallangan bemorlar tashkil etdi. Nazorat guruhi jinsi va yoshi mos bo'lgan 20 ta sog'lom odamdan iborat bo'ldi. 165 ta tekshirilgan bemorlardan 90 (54,5%) tasi ayol va 75 (45,4%) tasi erkaklarni tashkil etdi. Tadqiqotdagi bemorlarning yoshi 18 dan 74 yoshgacha bo'lib, ularning o'rtacha yoshi $56,5 \pm 14,3$ yoshni tashkil etdi.

Koronavirus infeksiyasini tashxislash uchun “Koronavirus infeksiyasi bilan kasallangan bemorlarni davolash bo'yicha vaqtinchalik tavsiyalar” dagi diagnostik ko'rsatkichlar olindi. Tadqiqotdagi barcha bemorlarda SARS-Cov-2 virusi markerlari immunoferment tahlil va polimeraz zanjirli reaksiyadapozitiv natija tashxislangan.

Qandli diabet, arterial gipertoniya, onkologik kasalliklar, jigar, buyrak kasalliklari kabi qo'shimcha kasalliklari bo'lgan bemorlar tadqiqot guruhiga kiritilmadi. Tadqiqotdagi bemorlarning yoshi 20 yoshdan 72 yoshgacha tashkil etdi.

Tadqiqot natijalari.


Klinik tadqiqotda 165 ta koronavirus infeksiyasi bilan kasallangan bemorlar tekshirildi.

Koronavirus infeksiyasi bilan kasallangan bemorlarda plazma gemostazining 1-bosqichini tadqiq qilish uchun FQTV tekshirilganda quyidagi natijalar olindi:

Nazorat guruhiga nisbatan 1, 2 va 3-guruhlarda FQTV ham sezilarli darajada qisqardi. 1-guruhda FQTV $25,4 \pm 2,2$ sek.*, 2-guruhda $21,0 \pm 1,5$ sek.***, 3-guruhda $18,9 \pm 1,1$ sek.***, nazorat

guruhida esa FQTV $29,1 \pm 1,3$ sek. ni tashkil etdi. COVID-19 bilan ogʻrigan asosiy guruh bemorlarida FQTV kasallik ogʻirlik

darajasiga mos ravishda qisqardi va giperkoagulyatsiyaga olib keldi (1-rasm).



1-rasm. COVID-19 da qon koagulyatsiyasining 1-bosqichini baholash


Izoh: *-nazorat guruhi ma'lumotlarga nisbatan farqlar sezilarli (*- $r < 0,05$, ** - $r < 0,01$, *** - $r < 0,001$)

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, COVID-19 bo'lgan bemorlarda Koagulyatsion gemostazning dastlabki bosqichida aniq giper Koagulyatsion buzilishlar kuzatilgan.

Koagulyatsion gemostazning ikkinchi bosqichiga baho berish maqsadida PTV, PTI va XNM tekshirildi.

Koagulyatsion gemostazning dastlabki 2ta bosqichini VII, V, X va II omillarning faolligi ta'minlaydi. Bu esa PTVda aks etadi. PTVning kamayishi giper Koagulyatsiyaga moyilligini ko'rsatadi.

Tadqiqotlar COVID-19 bo'lgan 1, 2 va 3-guruhlardagi bemorlarda gemostaz tizimining giper Koagulyatsiyaga tomon kuchli siljishini ko'rsatdi. Bunda nazorat guruhiga nisbatan 1, 2 va 3-guruhlarda PTV ham sezilarli darajada qisqardi. 1-guruhda PTV $11,9 \pm 1,3$ sek., 2-guruhda $9,9 \pm 1,1$ sek.*, 3-guruhda $8,1 \pm 1,0$ sek.***, nazorat guruhida esa PTV $13,4 \pm 1,1$ sek. ni tashkil etdi. COVID-19 bilan ogʻrigan asosiy guruh bemorlarida ham PTV kasallik ogʻirlik darajasiga mos ravishda qisqardi va giper Koagulyatsiyaga olib keldi (3.2-rasm).



2-rasm. COVID-19 da protrombin vaqti, s.

Izoh: *-nazorat guruhi ma'lumotlarga nisbatan farqlar sezilarli (*- $r < 0,05$, ** - $r < 0,01$, *** - $r < 0,001$)

PTI formula asosida PTV orqali aniqlanib, 1-guruxda PTI $108 \pm 8,8\%$, 2 guruhda $129 \pm 8,2\%*$, 3 guruhda $150 \pm 12,3\%*$ bo'lib, nazorat guruhida esa $98,0 \pm 6,6\%$ ni tashkil etdi.

XNM ham PTV indeksi bo'lib, qonni necha marta suyulganini ko'rsatadi va asosan antikoagulyant terapiya monitoringi uchun zarur. Nazoratguruhida XNM $1,0 \pm 0,08$ s bo'lsa, 1-guruhda $0,92 \pm 0,06*$, 2-guruhda $0,77 \pm 0,06 s*$ va 3-guruhda $0,68 \pm 0,05 s*$.

Koronavirus infeksiyasida TV aniqlash ham giper Koagulyatsion siljishni tasdiqladi: 1-guruhda TV $14,9 \pm 1,1$ sek, 2-guruhda $11,2 \pm 1,0$ sek, 3-guruhda $9,4 \pm 0,7$ sek, nazorat guruhida esa bu ko'rsatkich $22,6 \pm 1,6$ sek bo'ldi.

Fibrinogen plazma gemostazining 1-omili bo'lib, KI da midori keskin ko'tarildi. 1-guruhda fibrinogen $3,86 \pm 0,33$ g/l, 2-guruhda $4,62 \pm 0,51$ g/l*, 3-guruhda $6,14 \pm 0,68$ g/l***, nazorat guruhida esa $2,54 \pm 0,28$ g/l bo'lishi aniqlandi

D-dimer tromb degradatsiya maxsuloti sifatida KI da oshganligi aniqlanib, tromb hosil bo'lish va parchalanish darajasiga bog'liq. 1-guruhda D-dimer miqdori 251 ± 20 ng/ml, 2-guruhda 483 ± 32 ng/ml***, 3-guruhda esa 665 ± 48 ng/ml*** bo'lsa, nazorat guruhida bu ko'rsatkich 196 ± 16 ng/ml bo'ldi.

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, yengil darajali KI bilan kasallangan 1-guruh bemorlarda qon ivish tizimi va yalig'lanish markerlarida kuchli o'zgarish bo'lmadi, biroq 2-guruh o'rta og'ir va 3-guruh og'ir darajali KI da plazma qon ivishining barcha bosqichlarida kuchli giper Koagulyatsion o'zgarishlar kuzatildi. Davolash maqsadida koronavirus bazis terapiyasi kasallik

darajasiga mos ravishda to'liq qo'llanildi. Bemorlarga standartlarga mos ravishda antivirus, antiagregant, simptomatik davo o'tkazildi. Gemostaz Koagulyatsion tizimidagi giper Koagulyatsiyani davolash samaradorligini baholash maqsadida 2- va 3-guruh bemorlariga antikoagulyant terapiya o'tkazildi.

2-guruhda 28 ta bemorlarga va 3-guruhda 28 ta bemorga antikoagulyant sifatida Geparin 5000 B. tana vazniga ko'ra 4-6 mahal teri ostiga tavsiya etildi. Enoksiparin 6000 B. kuniga 2 mahal teri ostiga 2-guruhdan 31 tabemorlarga va 3-guruhdan 37 ta bemorlarga tavsiya etildi.

Antikoagulyant terapiyaning samaradorligi davolashdan oldin, terapiyaning 5- va 10-kunlarida solishtirildi.

Asosiy guruhdagi bemorlarning 2-guruhida FQTV davolashdan oldin $20,2 \pm 1,8$ s bo'lsa, geparin bilan davolashning 5-kunida bu ko'rsatkich $26,4 \pm 2,4$ sek** ni, 10-kunda esa $32,5 \pm 3,0$ sek** ni hosil qildi.

Enoksiparin bilan davolashdan oldin $20,1 \pm 1,8$ sek bo'lsa, davolashning 5-kunga kelib FQTV $32,2 \pm 2,8$ sek**, 10-kunda esa $45,4 \pm 4,1$ sek** bo'ldi. 3-guruhida FQTV davolashdan oldin $16,1 \pm 1,4$ sek bo'lsa, geparin bilan davolashdan 5-kunga kelib bu ko'rsatkich $22,4 \pm 2,0$ sek**, 10-kunda esa $26,1 \pm 2,1$ sek** gacha uzaydi. Enoksiparin bilan davolash shuni ko'rsatdiki, kichik molekulyar geparinsamaradorligi ancha yuqori bo'ldi: davolashdan oldin $16,3 \pm 1,3$ sek bo'lsa 5- kunda FQTV $26,4 \pm 2,1$ sek** gacha, 10-kunda esa $34,6 \pm 2,9$ sek** gacha uzaydi (2-rasm).

Xulosa qilganda, 2- va 3-guruh bemorlarini davolash shuni ko'rsatdiki, Enoksiparin kichik molekulyar geparin samaradorligi ancha yuqori bo'ldi.

Geparin bilan antikoagulyant terapiya o'tkazilganda mazkur guruhlarda PTVni tekshirishda ham analogik o'zgarishlar aniqlandi: 2-guruhdagi bemorlarda davolashdan oldin PTV $9,3 \pm 0,7$ sek bo'lsa, terapiyaning 5- kunida PTV $11,2 \pm 1,0$ sek*, 10-kunga kelib $12,5 \pm 1,3$ sek*** ni tashkil etdi. Enoksiparin bilan antikoagulyant terapiya o'tkazilganda ushbu guruhlarda PTVni tekshirishda quyidagi natidalarni berdi: 2-guruhdagi bemorlarda davolashdan oldin PTV $9,1 \pm 0,8$ sek bo'lsa, enoksiparin bilan davolash fonida 5-kunga kelib PTV $12,8 \pm 1,1$ sek*, 10-kunga kelib $15,2 \pm 1,3$ sek***ni tashkil etdi.

3-guruhdagi bemorlarda esa davolashdan oldin PTV $8,2 \pm 0,7$ sek bo'lsa, Geparin bilan terapiyaning 5-kunida PTV $10,3 \pm 0,9$ sek*, 10-kunga kelib $12,2 \pm 1,0$ sek*** ni tashkil etdi. Enoksiparin bilan davolash COVID-19 3- guruhdagi bemorlarda esa davolashdan oldin $8,1 \pm 0,8$ sek bo'lsa, terapiyaning 5-kunida PTV $12,3 \pm 1,1$ sek*, 10-kunga kelib $14,0 \pm 1,2$ sek*** ni tashkil etdi.

PTIni tekshirish shuni ko'rsatdiki, Geparin bilan antikoagulyantterapiya o'tkazilganda 2-guruhdagi bemorlarda davolashdan oldin PTI $129 \pm 10\%$ bo'lsa, terapiyaning 5-kunida PTI $107 \pm 9\%$, 10-kunga kelib $96 \pm 7\%^*$ ni tashkil etdi. Enoksiparin bilan antikoagulyant terapiya o'tkazilganda PTIni tekshirishda quyidagi natijalarni berdi: 2-guruhdagi bemorlarda davolashdan oldin PTI $131 \pm 1,1\%$ bo'lsa, davolash fonida 5-kunga kelib PTI $93 \pm 8\%^*$, 10-kunga kelib $78 \pm 8\%^{***}$ ni tashkil etdi. 3-guruhdagi bemorlarda esa Geparin bilan davolashdan oldin PTI $146 \pm 11\%$ bo'lsa, terapiyaning 5-kunida PTI $116 \pm 10\%^*$, 10-kunga kelib $98 \pm 8\%^{***}$ ni tashkil etdi. 3-guruhdagi bemorlarda Enoksiparin bilan esa davolashdan oldin $148 \pm 12\%$ bo'lsa, terapiyaning 5-kunida PTI $97 \pm 8\%^*$, 10-kunga kelib $85 \pm 7\%^{***}$ ni tashkil etdi.

Ikkala guruxlarda XNMni tekshirish analogik o'zgarishlarni ko'rsatdi. Geparin bilan antikoagulyant terapiya o'tkazilganda 2-guruhdagi bemorlarda davolashdan oldin XNM $0,77 \pm 0,06$

bo'lsa, davolash fonida 5- kunga kelib XNM $0,93 \pm 0,07^*$, 10-kunga kelib $1,04 \pm 0,09^{***}$ ni tashkil etdi. 2-turdagi terapiya bo'lgan Enoksiparin bilan davo o'tkazilganda XNMni tekshirishda quyidagi natidalarni berdi: 2-guruhdagi bemorlarda davolashdan oldin XNM $0,75 \pm 0,6$ bo'lsa, enoksiparin bilan davolash fonida 5-kunga kelib XNM $1,06 \pm 0,1^*$, 10-kunga kelib $1,26 \pm 0,09^{***}$ ni tashkil etdi. 3-guruhdagi bemorlarda esa Geparin bilan davolashdan oldin XNM $0,68 \pm 0,05$ bo'lsa, terapiyaning 5-kunida XNM $0,85 \pm 0,8^*$, 10-kunga kelib esa $1,01 \pm 0,09^{***}$ ni tashkil etdi. 3-guruhdagi bemorlarda esa Enoksiparin bilan davolashdan oldin $0,67 \pm 0,05$ bo'lsa, terapiyaning 5-kunida XNM $0,97 \pm 0,08^*$, 10-kunga kelib esa $1,16 \pm 1,0^{***}$ ni tashkil etdi.

COVID-19 da davolash fonida TVni aniqlash quyidagi o'zgarishlarni ko'rsatdi: Geparin bilan terapiya o'tkazilganda 2-guruhda davolashdan oldin TV $11,3 \pm 0,9$ sek bo'lsa, terapiyaning 5-kunida TV $15,6 \pm 1,2$ sek*, 10-kunga kelib $20,9 \pm 1,6$ sek*** ni tashkil etdi. Enoksiparin bilan antikoagulyant terapiya o'tkazilganda TVni tekshirish quyidagi natijalarni berdi: 2- guruhdagi bemorlarda davolashdan oldin TV $11,2 \pm 1,0$ sek bo'lsa, enoksiparin bilan davolash fonida 5-kunga kelib TV $17,8 \pm 1,3$ sek*, 10-kunga kelib $25,0 \pm 1,9$ sek*** ni tashkil etdi. Geparin bilan davolash guruhida 3-guruhda esa davolashdan oldin $9,3 \pm 0,7$ sek bo'lsa, terapiyaning 5-kunida TV $13,5 \pm 1,1$ sek*, 10-kunga kelib $18,4 \pm 1,8$ sek*** ni tashkil etdi. Enoksiparin bilan davolashda 3-guruhdagi bemorlarda esa davolashdan oldin $9,4 \pm 0,7$ sek bo'lsa, terapiyaning 5-kunida TV $15,6 \pm 1,4$ sek*, 10-kunga kelib $22,4 \pm 2,0$ sek*** ni tashkil etdi.

2-guruhda davolash sxemasi bo'yicha Geparinni qo'llash fibrinogen miqdorining yaxshilanishiga olib keldi. Davolashdan oldin fibrinogen miqdori $4,65 \pm 0,55$ g/l bo'lsa, Geparin bilan davolashning 5-kuniga kelib fibrinogen $4,03 \pm 0,32$ g/l ga teng bo'ldi, 10 kunda esa fibrinogen $3,26 \pm 0,23$ g/l ni tashkil etdi. COVID-19 da davolash sxemasi bo'yicha Enoksiparin qo'llash fibrinogen ko'rsatkichining 5-kundayoq normallashtirishiga olib keldi. 2-guruhda davolashdan oldin fibrinogen $4,60 \pm 0,48$ g/l bo'lsa, davolashning 5-kuniga kelib bu ko'rsatkich $3,15 \pm 0,30$ g/l bo'lsa, 10 kunda esa fibrinogen $2,66 \pm 0,22$ g/l ni tashkil etdi.

3-guruhda Geparin bilan davolashdan oldin fibrinogen miqdori $6,12 \pm 0,70$ g/l bo'lsa, Geparin bilan davolashning 5-kuniga kelib fibrinogen $5,23 \pm 0,41$ g/l ga teng bo'lsa, 10 kunda esa fibrinogen $4,82 \pm 0,33$ g/l ni tashkil etdi. Enoksiparin bilan davolash 3-guruhda davolashdan oldin fibrinogen miqdori $6,17 \pm 0,65$ g/l bo'lsa, Enoksiparin bilan davolashning 5-kuniga kelib fibrinogen $4,31 \pm 0,35$ g/l ga teng bo'lsa, 10 kunda esa fibrinogen $3,78 \pm 0,35$ g/l ni tashkil etdi.

D-dimer tromb parchalanish maxsuloti bo'lib, COVID-19 da oshganligi aniqlanib, 2-guruhda davolashdan oldin D-dimer 481 ± 31 ng/ml bo'lsa, Geparin bilan davolash fonida 5-kunda 355 ± 38 ng/ml, 10-kunda esa 273 ± 26 ng/ml ni tashkil etdi. Enoksiparin bilan davolashdan oldin 2-guruh bemorlarida D-dimer 485 ± 33 ng/ml bo'lsa, davolash fonida esa 5-kunda 314 ± 32 ng/ml, 10-kunda esa 218 ± 20 ng/ml ekanligi aniqlandi. 3-guruhda davolashdan oldin D-dimer 667 ± 46 ng/ml bo'lsa, Geparin bilan davolash fonida 5-kunda 409 ± 39 ng/ml, 10-kunda esa 276 ± 25 ng/ml ni tashkil etdi. Enoksiparin bilan davolashdan oldin D-dimer 663 ± 50 ng/ml bo'lsa, terapiya fonida esa 5-kunda 374 ± 32 ng/ml, 10-kunda esa 218 ± 20 ng/ml ekanligi aniqlandi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Enoksiparin bilan davolash Geparin bilan davolashga nisbatan koagulyatsion gemostaz ko'rsatkichlarini normallashtirishda ancha samarador

bo'ldi. Shu bilan birga, Enoksiparin bilan davolashda D-dimer, ferritin miqdori samaraliroq o'zgardi.

Xulosalar:

1. Koronavirus infeksiyasida gemostaz tizimida kuzatiladigan giperkoagulyatsiya nomutanosibliklarni oldini

olish, asoratlarini kamaytirish, antikoagulyant terapiya samaradorligini o'rganish bilan yakunlashga erishiladi.

2. COVID-19 past malikulyar geparin bilan davolash o'rta malikulyar gyparin bilan davolashga nisbatan koagulyatsion gemostaz ko'rsatkichlarini normallashtirishda ancha samarador bo'ldi.

Список литературы/References/Iqtiboslar

1. Abadjon Avezov, Mahmuda Kattahodjaeva, Feruza Boltueva, Sayyora Yuldasheva. Study of the development level of risk factors in dangerous tumors causing lonely arterial thromboembolia // International Journal of Advanced Science and Technology. – 2020. – Vol. 29, No. 5. – P. 1751-1760.
2. Boltoyeva F.G, Babajanova Sh.A, Kurbonva Z.Ch. Evaluation of the effectiveness of anticoagulant therapy in coronavirus infection // MSW MANAGEMENT - Multidisciplinary, Scientific Work and Management Journal. –December – 2023, Vol. 33. – Issue 2. – P. 133-141.
3. Бабаджанова Ш.А.; Маткаримова Д.С.; Болтеева Ф.Г Бергер И.В. Оценка нарушений системы гемостаза у пациентов с COVID-19. // Журнал теоретической и клинической медицины. – Ташкент, 2021. – № 5. – С. 102-103.
4. Болтаева Ф.Г Клинико-лабораторные проявления COVID-19 // Zamonaviy klinik laborator tashxisi dolzarb muammolari xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. – 27 dekabr 2022 yil.
5. Болтеева Ф.Г., Бабаджанова Ш.А., Курбанова З.Ч., Мадримов З.Х. Коронавирус инфекцияси билан касалланган беморларда гепарин ва эноксипаринни антикоагулянт самарадорлиги ва асоратларини баҳолаш. // Журнал гуманитарных и естественных наук. – 2023. – № 5 (11). – С.87-90.
6. Болтеева Ф.Г., Бабаджанова Ш.А. Оценка состояния плазменного гемостаза у больных коронавирусом в период первой волны COVID-19. // Журнал Вестник Ташкентской медицинской академии. – Ташкент, 2022. – С. 60-61.
7. Болтеева Ф.Г., Бабаджанова Ш.А., Курбанова З.Ч., Сатликов Р.К. постковид синдром билан касалланган беморларда гиперкоагуляция холатини ташхислаш ва даволаш. // Тиббиётда янги кун. – Бухоро, 2023. – №11 (61). – 216-224-б.
8. Болтеева Ф.Г., Отабоева Д.У. Клинико-лабораторные проявления COVID-19 // Журнал теоретической и клинической медицины. – Ташкент, 2022. – № 5. – С. 56-59.
9. Болтеева Ф.Г., Рахманова У.У., Бабаджанова Ш.А. Изучение клинического течения и гемостазиологических нарушений у больных коронавирусом в период первой волны COVID-19 в Хорезмской области // Новый день в медицине. – Бухара, 2022. - №2(40). – С.85.
10. Голдобин В.В. Атеротромботический инсульт: клинические показатели и параметры тромбоцитарного гемостаза у пациентов в остром периоде // Саратовский научно-медицинский журнал.—2012.—Т.8.—№4.—С.954–957.
11. Львова О.А. и др. Эпидемиология и этиология инсультов у детей грудного возраста // Неврология. Нейропсихиатрия. Психосоматика.—2013.—№25.—С.50–55.
12. Насырова З. А. и др. Влияние дестабилизации ишемической болезни сердца на психоэмоциональное состояние пациентов //Кардиология в Беларуси. – 2024. – №. 6 Часть 16. – С. 624-639.
13. Насырова З. А. Роль полиморфизма локуса-819 С/Т (rs1800871) гена IL-10 при дестабилизации ишемической болезни сердца у больных с нейросенсорными расстройствами //Journal of cardiorespiratory research. – 2022. – Т. 3. – №. 3. – С. 72-76.
14. Насырова З. А. ЭПИДЕМИОЛОГИЯ, ЭТИОЛОГИЧЕСКАЯ ВЗАИМОСВЯЗЬ И ПРОГНОСТИЧЕСКИЕ ПОСЛЕДСТВИЯ ДЕПРЕССИИ И ТРЕВОГИ ПРИ ИШЕМИЧЕСКИХ БОЛЕЗНЯХ СЕРДЦА //Journal of cardiorespiratory research. – 2022. – Т. 3. – №. 4. – С. 21-25.
15. Овсянникова А.Н. и др. Клинико-генетическая характеристика больных ишемическим инсультом молодого и среднего возраста //Ульяновский медико-биологический журнал.—2016.—№3.—С.48–58.
16. Элламонов С. Н., Насырова З. А. КЛИНИЧЕСКИЕ И ИНСТРУМЕНТАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ТЕЧЕНИЯ ИШЕМИЧЕСКОЙ БОЛЕЗНИ СЕРДЦА У БОЛЬНЫХ С КОМОРБИДНЫМИ СОСТОЯНИЯМИ //Journal of cardiorespiratory research. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 69-72.